IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH, ULARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

Hazratqulova B.O.
1-bosqich talabasi Muhandislik va Pedagogika Fakulteti,
Qarshi Xalqaro Universiteti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20484842

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga, e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi uning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar yoritilgan. Maqolada yoshlar siyosatini amalga oshirishdagi amaliy tajribalar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.Tadqiqot natijasida yoshlar siyosati mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishida muhim omil ekani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati ,yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy faollik, yoshlar huquqlari,jamiyat taraqqiyoti, tarixiy tajriba, islohotlar, milliy ong, ijtimoiy hayot, tafakkur

Abstract

This article analyzes the development of state policy toward youth in Uzbekistan during the years of independence, including its formation and stages of development. It also highlights reforms aimed at supporting young people by the state, as well as protecting their rights and interests. The article examines practical experiences in implementing youth policy and their importance in the development of society. As a result of the study, youth policy is identified as an important factor in the social, political, and spiritual development of the country.

Keywords: youth policy during the years independence, support for youth,education and upbringing,social activity,youth rights,reforms in the fields of social development.

Аннотатция:

В данной статье анализируется развитие государственной политики в отношении молодежи в Узбектистане в годы независимости, а также етапы ее формирования и развития. Также освещаются реформы, направленные на поддержку молодежи и защиту её прав и интересов со стороны государства. В статье рассматривается практический опыт реализации молодежной политики и её значение в развитии общества. В результате исследования делается вывод о том, что молодежная политика является важным фактором социального, политического и духовного развития страны.

Ключевые слова: Молодежная политика в годы независимости, поддержка молодежи, образование и воспитание, социальная активность, права молодежи, реформы в сферах общественного развития.

Kirish

Hozirgi kunda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Har qanday davlatning rivojlanishi, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi, xalq farovonligi yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga qaratilgan e'tibor bilan chambarchas bog'liq.Yoshlar davlat va jamiyat rivojida hal

qiluvchi kuchga ega bo'lgan, shu sababdan ham ularning ta'lim-tarbiyasi, bilim olishi,hamda faol ijtimoiy hayotga kirishini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan deb hisoblasak bo'ladi. Mustaqillik yillarida, yoshlar jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlanuvchi kuchi sifatida muhim o'rin egallamoqda. Mazkur maqolada, yoshlar siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning tarixiy tajribasi hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ushbu mavzuning dolzarbligi yoshlarning jamiyatdagi o'rni va ularni qo'llab-quvvatlash masalarining muhimligi bilan izohlanadi.O'zbekistonda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.Bu esa mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, va ma'naviy rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda.

Asosiy qism

Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishidagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy,tashkiliy va huquqiy chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator qonunlar va dasturlar ishlab chiqildi. Misol uchun: „Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi'' qonunning 5-moddasida yoshlarning huquqlari,erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash deb ko'rsatilgan, ya'ni bunda davlat uchun eng muhim asos. Chunki yoshlar o'z huquqlarini bilmasa yoki himoya qilmasa, ular jamiyatda faol bo'la olmaydi deb aytilgan.Bundan tashqari, ushbu moddada yoshlarning huquqiy bilim va madaniyatni oshirish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblangan. Chunki qonunni bilgan yoshlar to'g'ri yo'lni tanlaydi va jamiyatda faol inson va komil inson bo'ladilar.Ushbu moddaning yana bir yo'nalishi yoshlarni himoya qilish,tarbiyalash,o'qitish va rivojlantirish, ish bilan ta'minlash (ya'ni ishsizlikdan himoya qilish), va zararli ta'sirlardan asrash kabi muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Ya'ni, davlat yoshlarni har tomonlama rivojlangan, ongli va faol fuqaro qilib tarbiyalashni asosiy maqsad qilgan. Zamonaviy bilim berish usullarini joriy etish,ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan talaba sifatida alohida ta'kidlamoqchimanki, bunday keng ko'lamli islohotlar ta'lim tizimi oldiga ham mutlaqo yangi vazifalarni qo'yadi. Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar ulardan chuqur bilim,tanqidiy va tahliliy fikrlash, tashabbuskorlik, moliyaviy savodxonlik hamda global dunyoqarashni talab etadi. Demak, ta'lim muassasalari faqat bilim beruvchi emas, balki yoshlarni hayotga, raqobatga va mas'uliyatga tayyorlaydigan muhitga aylanadi. .Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy, moliyaviy va institutsional zamin yaratadi. Bu esa ta'lim va davlat siyosati o'rtasidagi strategik uyg'unlikni yanada mustahkamlaydi. Ya'ni, ta'lim tizimida yoshlarni qo'llab-quvvatlaydi va ularning rivojlanishi uchun keng islohotlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, yoshlar siyosatining asosi sifatida 5 ta muhim tashabbus doirasida ta'limga yondashuv o'zgardi. Bu tizim yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishdan boshlab, professional kasb-hunar o'rganishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi. Oliy ta'limdagi imkoniyat va kvotalar: So'nggi yillarda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9% dan 42% ga oshirildi. Yoshlar uchun maxsus imtiyozlar joriy etilgan.. Ta'lim kreditida xotin-qizlar uchun oliy ta'limda o'qish uchun foizsiz (davlat tomonidan qoplanadigan) ta'lim kreditlari. Iqtidorli yoshlar uchun Prezident va nomli stipendiyalar sonining keskin ortishi. ''Yoshlar daftari''va ta'limni qo'llab-quvvatlash. Ya'ni bu tizim orqali ta'lim olishda moddiy qiyinchilikkka uchragan yoshlarga bevosita yordam beriladi. Misol uchun, kontrakt to'lovlaridagi talabalarning to'lov kontraktlari miqdorining bir qismi davlat tomonidan qoplab berilishi. Natijada, yoshlarning bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada oshdi, ular zamonaviy kasb-hunarlarni egallashga keng imkoniyatlarga ega bo'ldi. Bu esa yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirib,ularning bandligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bilimli va malakali

yoshlar jamiyatni turli shohalarida faol ishtirok etib,mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha boshladi deb o'ylayman. Yoshlarimizga ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash va hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish davlat tomonidan amalga oshirilgan.

Bundan tashqari,yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni jamiyat hayotiga keng jalb etish maqsadida turli tashkilotlar va harakatlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish ularning shaxsiy kamolotida, shuningdek, mahalla va umuman jamiyat farovonligida muhim ahamiyatga ega. Mening soham sifatida ijtimoiy faollik: yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi oshirish ularning qiziqishlari,imkoniyatlari, intilishlari, ular uchun muhim bo'lgan ijtimoiy masalalarni hisobga olgan holda ko'p qirrali yondashuvni talab etadi. Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligi oshirishga yordam beradigan asosiy xususiyatlar va tamoyillar o'rganilgan va tahlil qilingan. Jamiyat va tashkilotlar ushbu xususiyat va tamoyillarni hayotga tatbiq etish orqali yoshlarni jamiyatning faol va intiluvchan a'zosi bo'lishga undashi mumkin. Yoshlarga ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo'llab-quvvatlash va boshqalar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda yoshlarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish hamda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, sifatli ta'lim olish, bandligi ta'minlash hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda, yosh avlodni vatanparvarlik, mas'uliyat va tashbbuskorlik ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ularning huquqlarini himoya qilish va imkoniyatlarini kengaytirish orqali kelajakda kuchli, bilimli va raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va milliy taraqqiyotning uzluksizligini kafolatlaydi.

Demak, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning manfaatlarini himoya qilish nafaqat bugungi kun, balki ertangi taraqqiyot uchun ham mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston..Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. ''Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida'' gi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasinig "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun.
4. "Yoshlar daftari" tizimi bo'yicha Prezident qarorlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi rasmiy materiallari va hisobotlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiya tomonidan e'lon qilingan qaror va farmonlar.